



Turizm Atamalarning Shakllanishida Terminologiyaning Rolи

Vakhidova Fotima Saidovna

Buxoro davlat universiteti xorijiy tillar fakulteti ingliz tilshunosligi kafedrasi katta
o'qituvchisi

Email: Vakhidovafatima1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi turizm sohasidagi terminologiya jarayonini tahlil qilishga bag'ishlangan. Qiyoslanayotgan tillarning shu sohaga doir leksik birligini qayta ko'rib chiqishda va turistik atamalarning shakllanishiga olib keladi. Terminologiya jarayonida leksik birlikning ma'nolarini o'zgartirishning eng samarali usullaridan biri metafora va metonimik ko'chimlardir.

Калит сўзлар: Metanomiya, metafora, atamalashtirish, touristik, atama.

Termin grekcha terminus so 'zidan olingen bo 'lib, chek, chegara degan ma'noni bildiriadi. U fan-texnika, qishloq xo'jaligi, san'at va madaniyat sohasiga xos so'z hisoblanadi. Terminologiya - terminlar haqidagi ta'lilot va terminlar majmui degan ma'nolarni anglatadi.

Termin so 'zi o 'rnida ba'zan atama, istiloh so 'zlarini ishlatish hollari uchrab turadi. Ammo bu to 'g 'ri emas. Atama termin so'ziga nisbatan tor tushunchani ifodalaydi. Istiloh so'zi esa arabchadir. Uni xalq tushunmaydi va til moyoriga aylangan emas. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lug'aviy qatlamlaridagi o'rni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash imkonini beradi.

Turizmiga doir maxsus sohaning paydo bo'lishi o'z terminologiyasini yaratish zaruratini keltirib chiqardi, chunki terminosistemalar muayyan turizm sohasi ob'ektlari va hodisalarining nomlanishi til birliklarining to'plamidir.

Ziyorat turizm terminlarining asosiy birligi turizm atamalaridir. Ziyorat turizmi atamalari ilmiy va diniy bilimlarning muayyan sohaga xizmat qiluvchi maxsus terminologik birlik bo`lib hisoblanadi.

Uzoq vaqt davomida zamonaviy terminshunoslikning dolzarb muammolaridan biri til tizimidagi atamani aniqlash vazifasi bo'lib qoldi. Terminning lingvistik maqomini aniqlash uning ikkilamchi tizimini asosiy xususiyatlaridan biri sifatida belgilaydi. Ushbu turizm atamalari birinchi navbatda baynalminal xalqlariga tegishli, ammo u terminologik tizimning elementi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun, uning shakllanishi va takomillashtirish jarayonida terminosistema til resurslariga tayanadi. Til tizimining bir qismi sifatida har qanday turizmga doir atamalar tilda qabul qilingan tamoyil va qoidalarga muvofiq shakllanadi va rivojlanadi. Terminologik atama so'z birikmalariga xos bo'lgan asosiy usullar bilan yasaladi.

Ilmiy-turizm terminologiyasi ko'p jihatdan tilning leksik birliklarining semantik tuzilishini o'zgartirish asosida shakllangan atamalar hisobidan yasaladi. Bunda so'zning terminologiyasi semantik rivojlanishi sifatida tavsiflanadi.

Umuman olganda terminologiya ikki tomonlama tushuniladi:

1. keng ma'noda ishlatiladigan leksik birlikning ma'nosini qayta ko'rib chiqish natijasida yangi terminologik birliklarni shakllantirishning barcha jarayonlarini qamrab oladi (ya'ni, bunday talqinda "terminologiya" va "terminlarning semantik usuli" teng deb hisoblanishi mumkin). So'z birikmalarining terminologiyasi davomida leksik birlikning semantikasini qisqartirish



Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes

<http://www.conferenceseries.info>

yoki kengaytirish jarayoni, turli xil ko'chim turlari, ya'ni leksik birlikning terminosferaga o'tishiga olib keladigan jarayonlar ro'y beradi.

2. Tor ma'noda terminologiya leksik birlikning semantik tuzilishidagi atamalarning toifasiga o'tish jarayonida alohida o'zgarishlarni anglatadi.

Terminologiya metaforik va metonimik ko'chim orqali amalga oshiriladigan terminologik sohaga o'tishda tilning leksik birligining ma'nosini qayta ko'rib chiqish jarayoni sifatida semantik shakllanishning bir turi bo'lib xizmat qiladi. Terminologik metafora barqaror xarakterga ega va tinglovchiga qo'shimcha tasvirlar yoki hissiy rangli uyushmalarga sabab bo'lmaydi. Chunki metafora og'zaki nutqda foydalanish jarayonida tushurilib qolib, tilning semantikasiga aylanib, o'zining shaxsiy xarakterini va tasavvurini yo'qotadi.

Turism terminologiya sohasida metafora turistik atamaning yangi birligini shakllaniishga xizmat qiladi. Turistik atama tilda mayjud bo'lgan tayyor birlikdan foydalanadi. Biroq, tilda bo'lgani kabi, atama faqat shakl, tashqi ko'rinish, ishlab chiqarilgan taassurot, funktsiyaning o'xshashligi bilan assotsiativ aloqalar mavjud bo'lganda paydo bo'ladi. Ushbu ko'chim bilan shunga o'xshash ma'noviy birliklar paydo bo'ladi, ular ko'chim vaqtida eng muhim deb e'tirof etiladi [3, p. 372]. Metaforik ko'chimlarning asosiy sabablari motivatsion belgilar yangi ob'ektlar va hodisalarning nomlanishi uchun metafora ishlatish jarayonlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. [2, p. 59] Metaforik birikmalar asosida yaratilgan narsaning ko'zga ko'rinxaydigan narsalarni tushuntirishga qo'l keladi, ya'ni ob'ektlar va hodisalarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Masalan: xonaqo - bu sayohlarning vaqtinchalik turargohi hisoblanadi. Xalq tilida madrasadagi xonaqlarni darsxona sifatida bilishadi.

Terminologiyada metaforik ko'chim jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

1. birinchi bosqichda mutaxassislar so'zdan ajralib turadigan natijada atama sifatida ishlatishga to'g'ri keladigan tegishli leksik birlikni tanlaydi;
2. ikkinchi bosqich (konseptualizatsiya bosqichi) so'zning semantik tuzilishi ta'siri ostida ob'ekt konseptsiyasini shakllantirish jarayonini o'z ichiga oladi;
3. uchinchi bosqichda tanlangan birlik yangi maxsus konseptsiyaga asoslanadi. Ushbu jarayon natijasida til birligi ma'lum bir sohada yoki undan tor doirada o'z maxsus qiymatiga ega bo'lib, atamaga aylanadi.

Quyidagi konseptual sohalar metaforik birliklarning asosiy manbai sifatida tan olinishi mumkin: inson tanasi, hayvonlar, o'simliklar, inshootlar, binolar, mexanizmlar hamda asboblar va hokazolar, masalan, ROOMning leksik birligi xona va asosiy ma'noga ega "a part of the inside of a building that is separated from other parts by walls, floor, and door."

Asosiy metonimik ko'chim "harakat - natija" nisbati bo'lishi mumkin (turar joy — xizmati / xizmat ko'rsatish; tour - a journey / a set of services); "harakat-vosita / harakat usuli "(turizmga doir reklama-axborotni taqdim etish / axborotni tarqatish vositasi; transfer —local transportation / means of transport).

Determinologiya hodisasi har ikki tilda ham keng tarqalgan. Bundan tashqari, turizm sohasidagi talablar boshqa fanlardan ko'ra tezroq keng tarqalgan atamalariga turizm tadbirkorligiga qiziqish ortib borayotganligi sababli mehmonxona, gid, viza, chipta, kruiz, hotel, reception, camping, resort, double room kabilar og'zaki va yozma nutqda kirib kelishiga sabab bo'limoqda.

Turizm sohasi iqtisodiyot tilidan (talab, xarajatlar) (спрос, расходы) (demand, expenses); narxlari-Rates (corporate rate, net rate), юриспруденциялар (норезидент/non-resident, бекор қилиш/cancellation), force majeure, agency agreement), маркетинга (личные продажи/shaxsiy savdo, add-ons, pricing), advertisement/реклама/ reklama, jamoatchilik bilan aloqalar (reklama,



Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes

<http://www.conferenceseries.info>

broshyura, buket, tarqatma/brochure, catalogue). Shu bilan birga, atamalarni bilim sohasidagi bir sohadan ikkinchi sohaga o'tish deyarli har doim ham har ikki tilda parallel ravishda o'tadi.

Turizmning ushbu yangi sohasidagi kontentning kengligi va faoliyatning muayyan shakllarining ko'pligi atamalarning xilma-xilligiga javob beradi. Ularning har biri uning muhim jihatlarini ochib beradi. Birgalikda, bu ta'riflar yangi sayyohlik sohasining maqsadlari va vazifalari haqidagi g'oyalarning xilma-xilligi va evolyutsiyasini to'liq tasvirlaydi. Turizm termosistemasini shakllantirishda amalga oshiriladi tilning tipologik xususiyatlari: qiyosiy tipologik tadqiqotlar terminologiya tashkil etuvchi tasvirlarning muntazamligi haqida atamalar asoslarida fikrlashga olib keladi. Atamalarni yaratishda ular umumiy tasavvurga asoslangan tilning asosi bo'lib hisoblanadi.

O'z - o'zidan ko'rinish turibdiki metafora-atamalar afzalliklarga ega, ular qisqartirish, aniqlik, ravshanlik, ya'ni. ko'pincha uzoq "kitobiy" atamalariga ega bo'lмаган fazilatlarni qamrab oladi. Bundan tashqari, ularni tushunish qiyin emas, chunki ular kasbiy muloqot uchun qulaydir. Masalan: xona/Room (RM), bir kashilik xona/Single room (SGL); ikki kishilik xona/double room (DBL); uch kishilik xona/triple room (TRPL); nonushta bilan bиргалидаги xona/bed with breakfast (BB); faqat yotoq/room only (RO), yotoq, ham nonushta ham tushlik/Room with half board (roomHB), yotoq uch mahal ovqati bilan/ Room with full board (Room FB)

So'z birikmalarini to'ldirish usuli sifatida transterminologiya ikki tilda turistik terminofondni boyitishda muhim rol o'ynaydi:

References:

1. Hilpert, M. Keeping and eye on the data: Metonymies and their patterns [Text] / M. Hilpert // Trends in Linguistics. Corpus-Based Approaches to Metaphor and Metonymy. — Berlin—New York, 2006. — P. 123–152.
2. Ивина, Л. В. Лингво-когнитивные основы анализа отраслевых терминосистем (на примере англоязычной терминологии венчурного финансирования): Учебно-методическое пособие [Текст] / Л. В. Ивина. — М.: Академический проект, 2003. — 304 с.
3. Ibragimovna, G. M., Saidovna, V. F., & Suleymanovna, K. N. (2020). A short humoristic text for the training of students with specialized of tourism. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(2), 509-519.
4. Левитская Е.Н. Англо-русский и русско-английский словарь по туризму / Е.Ю. Левитская, Н.Ю. Юрченко. —М.: Изд-во Живой язык, 2010. —512с.
5. V.F. Saidovna. Using games and innovative technologies in the English language classroom. Научный Вестник Наманганского Государственного Университета, – Р. 232-238.
6. Расулов, З. И. (2011). Синтаксический эллипсис как проявление экономии языка): автореферат дисс.. кандидата филологических наук/Расулов Зубайдулло Изомович.- Самарканд, 2011.-27 с.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=BMFYYzIAAAAJ&citation_for_view=BMFYYzIAAAAJ:UeHWp8X0CEIC
7. Расулов, З. И. (2017). Особенности моделирования эллиптических предложений в связи с позиционными звеньями. Тил бирликларини қиёсий-типологик ва лингвомаданияшунослик йўналишларида тадқики ва уларнинг тилларни ўқитишдаги ўрни. Илмий мақолалар тўплами. К, 2, 54-56.



Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes

<http://www.conferenceseries.info>

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=BMFYYzIAAAAJ&citation_for_view=BMFYYzIAAAAJ:YsMSGLbcyi4C

8. Saidova, M. U. (2019). Lexical Stylistic Devices and Literary Terms of Figurative Language. International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN, 2277-3878. <https://www.ijrte.org/wp-content/uploads/papers/v8i3S/C10541083S19.pdf>.
9. Saidova, Muhayyo (2021) "SEMANTIC ANALYSIS OF LITERARY TERMS BY LITERARY TYPES IN "THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERATURE TERMS"," Philology Matters: Vol. 2021 : Iss. 1 , Article 11. DOI: 10.36078/987654486 Available at: <https://uzjournals.edu.uz/pholm/vol2021/iss1/11>